

FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI


2023- YIL YANVAR-SENTABR
OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA
INVESTITSIYALAR



Farg'ona 2023- yil

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 14 068,1 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirilib, ularning 61,4%i yoki 8632,3 mlrd. soʻmi jalb etilgan mablagʼlar hisobidan moliyalashtirilgan boʻlsa, korxona, tashkilot va aholining oʻz mablagʼlari hisobidan 38,6% yoki 5435,8 mlrd. soʻm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022-yildagi ulushiga nisbatan 0,3% punktga kamaydi, 12,8 %ni yoki 1797,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 12271,1 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalarning 87,2 % oʻzlashtirilib, 2022- yildagi koʼrsatkichga nisbatan 0,3% punktga koʼpaydi.

MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR




Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 186,2 mldr. so'm (1,3 % va 3,1 % punktiga kamaydi), Respublika budjeti 1447,7 mldr. so'm (10,3 % va 3,3% punktga ko'paydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 163,1 mldr. so'm (1,2 % va 0,5 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga inestitsiyalar o'zlashtirildi.



MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 2312,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,4% ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 22,2 % i yoki 3123,3 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3289,2 mlrd. so'm bilan 23,4 %ni tashkil etdi, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 810,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 5,8% ini tashkil etib, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 2735,7 mlrd. so'm bilan 19,4 %ni tashkil etdi.




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	Markazlshgan investitsiyalar, %da	Markazlashmagan manbalar, %da
Farg'ona viloyati	14 068,1	12,8	87,2
Farg'ona sh.	3 433,6	27,3	72,7
Qo'qon sh.	892,2	2,0	98,0
Quvasoy sh.	369,1	7,0	93,0
Marg'ilon sh.	631,8	2,1	97,9
Oltiariq	683,9	17,4	82,6
Qo'shtepa	971,1	5,3	94,7
Bag'dod	315,0	13,4	86,6
Buvayda	422,8	2,6	97,4
Beshariq	658,3	5,4	94,6
Quva	335,1	8,0	92,0
Uchko'prik	1 013,5	3,1	96,9
Rishton	733,4	14,0	86,0
So'x	89,4	39,2	60,8
Toshloq	981,4	5,7	94,3
O'zbekiston	803,9	5,1	94,9
Farg'ona t	663,2	15,2	84,8
Dang'ara	631,9	8,2	91,8
Furqat	151,5	12,4	87,6
Yozyovon	287,0	27,9	72,1



Tyulyagin.ru

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, %da




Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha yuqori ko'rsatkich aholi mablag'i investitsiyalarda kuzatilib, 2022 - yilning mos davriga nisbatan 8,5 %ga ko'paydi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. soʻm	Oʼsish surʼati, %da	Viloyatida ulushi, %da
Fargʼona viloyati	14 068,1	118,2	100,0
Fargʼona sh.	3 433,6	106,0	24,5
Qoʼqon sh.	892,2	108,4	6,3
Quvasoy sh.	369,1	124,9	2,6
Margʼilon sh.	631,8	190,0	4,5
Oltiariq	683,9	156,9	4,9
Qoʼshtega	971,1	93,8	6,9
Bagʼdod	315,0	88,4	2,2
Buvayda	422,8	130,3	3,0
Beshariq	658,3	106,3	4,7
Quva	335,1	135,8	2,4
Uchkoʼprik	1 013,5	117,2	7,2
Rishton	733,4	181,7	5,2
Soʼx	89,4	57,3	0,6
Toshloq	981,4	158,1	7,0
Oʼzbekiston	803,9	101,5	5,7
Fargʼona t	663,2	171,7	4,7
Dangʼara	631,9	149,4	4,5
Furqat	151,5	48,8	1,1
Yozyovon	287,0	118,8	2,0

2023- yil yanvar-sentabr oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2022- yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 190,0% bilan Marg'ilon shahrida kuzatildi. Bu asosan "TEXYGEN TEXTILE" MChJda Salfetka (nam) ishlab chiqarishni tashkil etish faoliyatini kengaytirish hisobiga amalga oshirildi.

Shuningdek, Rishton tumanida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 181,7 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "Rusuzbektex" MChJ XK sochiq va mato ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga tashkil etdi.

Farg'ona tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 171,7 %ni tashkil etgan bo'lib, bu natija "Bahodir Log'on Tekstil" MCHJ QKda paxtachilik klasterini kengaytirish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik va takror ishlab chiqarish tarkibi



Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 5 339,9 mlrd.so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 38,0 %ini tashkil etdi. Qurilish-montaj ishlari bo'yicha 7 798,7 mlrd.so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 55,4 %) va boshqa xarajatlarga 929,5 mlrd. so'm (6,6 %) o'zlashtirildi.

Shahar, tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 60,8 % yoki 400,0 mlrd. so'm bilan Besariq tumanida kuzatildi.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Furqat tumanida kuzatilib, 79,9 % ni yoki 121,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 7 674,8 mld. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 54,6 %ini tashkil etdi.

Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshloq tumanida kuzatilib, u 77,3% yoki 758,8 mld. so'mni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 3502,6 mld. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 24,9 %ini tashkil etdi. Qolgan 20,5%, ya'ni 2890,7 mld. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Shahar , tumanlar bo'yicha yangi qurilish ishlaringin ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Shahar, tumanlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da




Shahar, tumanlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da




Shahar, tumanlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



Shahar, tumanlar bo'yicha qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



Shahar, tumanlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 452,2 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 45,9 % i o'zlashtirilgan.


Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

**KOKS VA NEFTNI QAYTA
ISHLASH
MAHSULOTLARNI
ISHLAB CHIQARISH**
349,8 mlrd. so'm
Ulushi 2,5 %


**BOSHQA NOMETALL
MINERAL
MAHSULOTLAR
ISHLAB CHIQARISH**
1451,0 mlrd. so'm
ulushi 10,3 %

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI ISHLAB
CHIQARISH**
2 570,4 mlrd. so'm
ulushi 18,3 %

Viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Ishlab chiqarish sanoati
Axborot va aloqa
Tog' -kon sanoati
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
Turar-joy qurilishi



Shahar, tumanlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Shahar va tumanlar	Jami, mlrd. soʻm	Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar	Oʻz.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Fargʻona viloyati	6 211,1	3289,2	186,2	2 735,7
Fargʻona sh.	1160,8	506,0	185,9	468,9
Qoʻqon sh.	500,1	456,2	-	43,9
Quvasoy sh.	123,3	40,5	0,2	82,6
Margʼilon sh.	341,6	22,3	-	319,3
Oltiariq	245,9	23,1	-	222,8
Qoʼshtepa	403,4		0,1	403,3
Bagʼdod	111,9	34,7	-	77,2
Buvayda	202,7	81,5	-	121,2
Beshariq	356,7	355,8	-	0,9
Quva	127,2	124,9	-	2,3
Uchkoʼprik	595,6	517,4	-	78,2
Rishton	286,7	237,4	-	49,3
Soʼx	2,9		-	2,9
Toshloq	517,4	94,6	-	422,8
Oʻzbekiston	330,4	327,2	-	3,2
Fargʻona t	325,3	136,9	-	188,4
Dangʼara	402,2	164,1	-	238,1
Furqat	48,7	40,1	-	8,6
Yozyovon	128,3	126,6	-	1,7


2023- yil yanvar-sentabr oylarida 6 211,1 mlrd. soʻm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 44,1 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan oʻzlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 3 453,0 mlrd. soʻmnini tashkil etdi va qolgan 2 758,1 mlrd. soʻm xorijiy kreditlar hisobiga toʻgʼri keldi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya hisobidan joriy davrda 3 289,2 mld. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 186,2 mld. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



IJTIMOY SOHA OBYEKTALARINI ISHGA TUSHIRISH

*Jami turar-joylar
1029,2 ming. kv.m*

*Yakka tartibda qurilgan
turar-joylar
1029,2 ming kv.m*

*Namunaviy loyihalar asosida
qurilgan turar-joylar
- ming kv.m*



Turar-joylarni ishga tushirish	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, ming kv.m
Farg'ona viloyati	4085	1029,2
Farg'ona sh.	420	121,0
Qo'qon sh.	475	119,1
Quvasoy sh.	106	27,4
Marg'ilon sh.	304	68,9
Oltiariq	253	64,9
Qo'shtepa	201	59,6
Bag'dod	160	40,1
Buvayda	211	59,0
Beshariq	172	24,5
Quva	288	86,1
Uchko'prik	104	23,9
Rishton	155	27,8
So'x	43	7,0
Toshloq	321	93,3
O'zbekiston	157	32,9
Farg'ona t	239	56,9
Dang'ara	153	34,9
Furqat	189	46,7
Yozyovon	134	35,2

Farg'ona viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

Suv tarmog'i qurilishida jami 26,8 mld. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 36,2 %i aholi mablag'i, 34,5%i Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi, Respublika budjeti 1,5 %i va 27,8 %i boshqa manbalar hisobidan o'zlashtirildi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(73) 241-98-42**